

XADICHA SULAYMONOVA – ADOLAT SOHIBASI

Sodiqjonova Sevinch

*Toshkent davlat yuridik universiteti
“Jinoiy odil sudlov” fakulteti talabasi*

Annotatsiya Ushbu maqolada Xadicha Sulaymonovaning oilasi, uning qayerlarda faoliyat yuritganligi, xalq sudyasi bo’lganida bildirilgan ishonchni to’laqonli oqlaganligi, Oliy sud raisi bo’lganida insonlarni muammolarini hal qilishga harakat qilganligi, oilalarни saqlab qolganligi, adolatliligi, qonuniy ish qilganligi, erishgan yutuqlari haqida ma’lumot berilgan.

Kirish so’zlar: Adliya vaziri, adolatli, qonuniy, shikoyatlar, xalq sudyasi, ayollar, oila, shartli hukm, protest.

1913-yil 3-iyul kuni Andijon shahrida ziyorilar, ya’ni Sulaymon Kelginboyev oilasida Xadicha Sulaymonova dunyoga kelgan.U oilada uchinchi farzand bo’lgan.Xadicha Sulaymonova akasi Yusufjon, opasi Mo’tabar va kichik ukasi Niyoz bilan birga to’qqiz yillik mакtabni tugatgan.1931-1935-yillarda Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlov kursida, so’ngra Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq institutining huquq fakultetida o’qigan.

Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlov kursida, so’ngra Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq institutining huquq fakultetida o’qigan.1935-yil iyul xalq sudyasi vazifasida faoliyatini boshlagan.Shu yilning dekabr oyida O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi a’zoligiga saylangan.O’sha davr juda og’ir bo’lgan.U bu joyda jinoyat sudi yuritish ishlarini boshqargan.Uyulib yotgan jinoyat ishlaridan cho’chimagan, hamma hujjatlarni sinchkovlik bilan o’rganib, hatto dam olish kunlarida ham ishlagan.Ba’zi vaqtarda sudda ko’rilgan jinoyat ishida shaxsning aybi tasdiqlanmasa, haqiqatni aniqlash qiyin bo’lgan.Dastlabki tergov organlari egri dalillar bilan shaxsni aybdor deb topgan hollari ham bo’lgan.Shunday hollarda, X.S.Sulaymonova O’zbekiston SSR Oliy sudining raisi E.M.Udrisga murojaat qilib, maslahatlar so’ragan.

1938 - yil sentabrda Moskva yuridik instituti Sovet jinoyat huquqi kafedrasiga aspirant sifatida qabul qilingan.1941-1945-yil avgustda Toshkent yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasida dotsent bo’lib ishlagan.Shu yilning 20 - iyulda SSSR Adliya vazirligi huzuridagi Butunitifoq yuridik fanlari institutida “Harbiy interentsiya va grajdalar urushi davrida O’zbekistonning jinoyat qonunlari” mavzusida dissertatsiya yoqlab, yuridik fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo’lgan.Sentabr



oyida Toshkent davlat yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasи mudiri etib tayinlangan.1948-yil sentabr oyida SSSR FA huquq institutiga 2 yil doktoranturaga yuborilgan.1950-yil 29-dekabrda "O'zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.1951 - yil yanvarda yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasining mudiri etib tayinlangan.1954 - yil sentabr oyida yuridik instituti direktori etib tayinlangan.Shu yilda "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni berilgan.1955 - yilda institut tugatilgach, O'rta Osiyo davlat universiteti yuridik fakultetining dekani hamda jinoyat huquqi kafedrasining mudiri lavozimida ishlagan.1956 - yil sentabr oyida Adliya vaziri vazifasini bajarishga kirishgan. Shu yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zoligiga saylangan.1956- yilda Kommunistik partiya a'zoligiga qabul qilingan.Uch yildan so'ng, Adliya vazirligi tugatilib, Vazirlar Kengashi huzurida tashkil etilgan Yuridik komissiya raisi qilib tayinlangan.1959 - yilda O'zbekiston SSR Oliy Soveti deputatligiga saylangan.

1964 -yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi etib saylangan.O'sha vaqtida Y.S.Nasriddinova shunday yozgan edi : "Oliy sud lavozimi juda ma'suliyatli.Partyamiz huquq-tartibot ishlarini amalga oshiruvchi organlarimizga qanchalik katta talablar quyayotgani ma'lum.Bu organlar sotsialistik qonunchilik prinsiplariga qat'iy rioya qilishga, davlat manfaatini, mehnatkashlar manfaatini himoya qilish va ularni tuhmat hamda qonunsizlikdan himoya qilishga da'vat etilgan.Xadicha Sulaymonovaning Oliy sud raisligiga ko'tarilishi partiya va xalqning mehnatkash xotin-qizlarga ko'rsatayotgan yuksak ishonchning yana bir ifodasıdir"

X.S.Sulaymonova o'ziga bildirilgan ishonchni to'laqonli oqlagan.U o'z lavozimini g'ayrat bilan ishlagan.U jazo berishda o'zini oqlamagan qattiq choralar qo'llashga qarshi bo'lib, sotsialistik qonunchilik shafqatsiz jazo qo'llash bilangina emas, jazoadolatlilik bilan mustahkamlanishini aytgan.X.Sulaymonova shunday der edilar : "Jazolashdan asosiy maqsad ozodlikdan mahrum qilish emas, eng muhimi, aybdor o'z xatosini qalbi bilan his etsin va anglasin, qilmishlaridan pushaymon bo'lsin, biz unga ishonaylik".U Oliy sudining jazoni bir-ikki yil kamaytirishni prinsipsizlik degan ayrim prokuratura xodimlari fikriga qo'shilmas edi.Hukm barqarorligi – qonunga asoslanganligi derdi X.Sulaymonova.U O'zbekiston SSR Oliy sudi raisligida SSSR Oliy sudi va ittifoqdosh respublikalar oliy sudsini tuzilishini va faoliyatlarini sinchklab o'rganib, sud organlarini kundalik ishlarini chuqr o'rganishga, hisobotlarning har bir varag'ini sinchiklab ko'rishga, oliy sud huzuridagi mavjud xizmat va bo'limlar xilma-xil ishining o'ziga xos taraflarini aniqlashga qaratgan.U respublika sud organlarida shikoyatlarini o'z vaqtida hal qilinishiga katta



e'tibor bergen.Oliy sudda yangi tashkil etilgan shikoyatlar bo'limida fuqarolarni kunda qabul qilish tartibi joriy etilib, sud a'zolarining qabulxonada fuqarolarni qabul qilish vaqtini va kunini ham yozib quygan edi.Bunda X.Sulaymonovaning o'zi o'rnak bo'lgan.U fuqarolarni qabul qiladigan kunlarida ular bilan suhbatlashar, Kunduz kuni soat ikkida boshlangan qabul ba'zida yarim kechgacha davom etgan.Bu odat Oliy sud raisining o'rinnbosarlari, Oliy sudining barcha a'zolariga tartibdek bo'lib, hamma qat'iy amal qilgan.X.Sulaymonova hech qachon vaqtini bilan hisoblashmagan inson edi.U issiq kunlarda ham hukumat organlarida bo'ladijan majlislarda qatnashib, keyin yana o'zi ishlaydigan makonga qaytib kelar edi.

X.Sulaymonova har bir holatga adolatli, qonuniy baho berar edi.Bir kuni Samarqanddan kelgan bobo o'g'lining oilada yolg'iz boquvchiligin, xotini kasalmand ekanligini, oilaga moddiy yordam beradigan odam yo'qligini aytib, uni ozod qilishni so'rangan.Xadicha Sulaymonova o'sha payti qariyaga rahmi kelgan, lekin hammasi qonuniy hal qilinishini aytgan.U jinoyat ishi bilan tanishib, haqiqatan ham qariyaning o'g'liga og'irroq jazo berilganligini, u qamoqda o'zini yaxshi tutganligi, yaxshi ishlaganligi, obyektiv sabablarni inobatga olib, hukmni o'zgartirish va qamoqdagi yigitga shartli jazo qo'llash haqidagi protestga imzo chekkan.O'zbekiston SSR Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sud kollegiyasi protestni ma'qullagan.

Xadicha Sulaymonova oldiga asosan ayollar kelgan.Ular o'z tashvishlarini, oilaviy g'am-alamlarini aytib berishardi.X.Sulaymonova esa ayollarga maslahat berar, ularning eriga ham qat'iy so'z aytar edi.Bu orqali u er-xotinni xato yo'ldan qaytarar, oilani saqlab qolar, bolalar esa yetim bo'lib qolmas edi.

Xadicha Sulaymonova og'ir va uzoq kasallik natijasida 1965-yilning 26-noyabrida vafot etgan.Vafot etishidan oldin Xadicha Sulaymonova shunday degan edilar: Menga yana bir yillik umr kerak edi, shu umrni ilmiy faoliyatga bag'ishlagan bo'lar edim...".Xadicha Sulaymonova qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, juda muhim ishlarni amalga oshirgan, ular hayotini O'zbekistonni rivojlantirish uchun o'tkazganlar desak, mubolag'a bo'lmaydi.X.S.Sulaymonova ijtimoiy va ilmiy xizmatlari uchun ikkita "Hurmat Belgisi" ordeni, "Ulug'Vatan urushi davridagi shavkatli mehnati uchun" medali, O'zbekiston Oliy Sovetining Faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Xulosa qilib aytganda, Xadicha Sulaymonovaning sud organlari faoliyatini rivojlantirishga qo'shgan hissalari juda katta.Fuqarolarni shikoyatlarini, ularning shaxsiy tashvishlari, oilaviy muammolarini eshitib, ularga yechim berganlari uchun fuqarolar uni juda hurmat qilishgan.X.S.Sulaymonovaning adolatligiga shubha qilishmagan.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Хадича Сулаймонова – хуқуқшунос, олима, давлат арбоби М.Ҳакимов, Ф.Ахмедов, А.Саидов. –Т.Ўзбекистон, 1993. – 151 б.
- 2.Уч машҳур ўзбек аёли.-Т.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. -214 бет.
- 3.Nasriddinova Y.S.O'zbekiston xotin-qizlari,Toshkent, "O'zbekiston", 1967, 150-bet

